

HUQUQIY OILA TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

A'zamova Zarina Muhammadjon qizi

Farg'ona yuridik texnikumi

“Yuridik xizmat” yo‘nalishi

2-bosqich 42-24-guruh o‘quvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada huquqiy oila tushunchasining nazariy-huquqiy mazmuni, uni huquqiy tizim va huquq tizimi kategoriyalaridan farqlash mezonlari, milliy huquqiy tizimlarni muayyan huquqiy oilaga birlashtiruvchi belgilar hamda zamonaviy huquqiy oilalarning asosiy turlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Huquq manbalari, huquqiy tafakkur, huquq ijodkorligi va huquqni qo‘llash uslubi, qonunchilikni tizimlashtirish, sud amaliyotining ahamiyati, huquqiy madaniyat va tarixiy rivojlanish huquqiy oilalarni tasniflashning asosiy mezonlari sifatida asoslanadi. Ayni paytda mamlakat huquqiy tizimi milliy davlatchilik, musulmon huquqi, odat huquqi va sovet huquqi tarixiy tajribasining muayyan ta'sirini saqlab qolgan mustaqil milliy huquqiy tizim ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: huquqiy oila, huquqiy tizim, huquq tizimi, milliy huquqiy tizim, roman-german huquqiy oilasi, anglo-sakson huquqi, diniy-an'anaviy huquq, huquq manbasi, normativ-huquqiy hujjat, sud pretsedenti, huquqiy madaniyat, huquqiy an'ana.

Huquqiy oila tushunchasi qiyosiy huquqshunoslik va davlat va huquq nazariyasining muhim kategoriyalaridan biri bo‘lib, jahonda mavjud milliy huquqiy tizimlarni ularning o‘xshash tarixiy ildizlari, huquq manbalari, huquqiy tuzilishi, yuridik texnikasi, huquqiy tafakkuri va huquqni qo‘llash amaliyoti asosida muayyan guruhlarga ajratishga xizmat qiladi. Har bir davlat o‘zining mustaqil milliy huquqiy tizimiga ega bo‘lsa-da, turli davlatlar huquqida takrorlanuvchi umumiy belgilar mavjud. Ana shu umumiyliklar

muayyan milliy huquqiy tizimlarni bir huquqiy oila doirasida o'rganish imkonini beradi. Shu ma'noda huquqiy oila alohida davlat huquqining aynan nusxasi emas, balki tarixiy rivojlanish manbai, huquqning yetakchi shakli, huquqiy fikrlash usuli, qonunchilik va sud amaliyotining nisbati hamda huquqiy madaniyati jihatidan yaqin bo'lgan milliy huquqiy tizimlarning nisbatan keng ilmiy-tipologik birligidir.

Sh.A. Saydullayev huquqiy tizim deganda muayyan mamlakatda amal qilayotgan obyektiv huquqni, ya'ni davlat hududida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy voqelikni tushunish lozimligini ko'rsatadi. Olim "huquqiy tizim" atamasi ijtimoiy-iqtisodiy huquq turi, muayyan mamlakatning huquqiy tizimi va turli mamlakatlar huquqiy tizimlarining birligi ma'nolarida qo'llanilishini ta'kidlab, roman-german, umumiy yoki anglo-sakson, Skandinaviya, Lotin Amerikasi, Uzoq Sharq, diniy-an'anaviy, sotsialistik hamda aralash huquqiy tizimlarni ajratadi.[1] Muallifning mazkur yondashuvi huquqiy oilani huquqiy tizimlarning umumiy va muhim xususiyatlari asosida tashkil etilgan yuqori darajadagi tipologik guruh sifatida tushunish imkonini beradi. Huquqiy oila tushunchasining ilmiy ahamiyati shundaki, u bir davlat qonunchiligini alohida o'rganish bilan cheklanmay, huquqiy hodisalarning tarixiy va madaniy asoslarini, huquq manbalari o'rtasidagi nisbatni, yuridik tushuncha va konstruksiyalarning shakllanishini hamda huquqni amalga oshirish mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilishga imkon beradi.

Huquqiy oila, huquqiy tizim va huquq tizimi tushunchalarini bir-biridan farqlash zarur. Huquq tizimi muayyan davlat huquqining ichki tuzilishini ifodalab, huquq normalari, huquq institutlari, huquq tarmoqlari va tarmoqchalarining o'zaro muvofiq joylashuvini anglatadi. Huquqiy tizim esa huquq tizimiga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, amaldagi huquq normalari bilan birga huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash, huquqiy munosabatlar, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, yuridik muassasalar, qonuniylik va huquqiy

tartibotni ham qamrab oladi. Sh.A. Saydullayev huquqiy tizimning normativ elementlariga huquq, huquq tizimi, huquqiy prinsiplar va huquq manbalarini; jarayoniy elementlariga huquq ijodkorligi, huquqni amalga oshirish va qo'llash, huquqiy munosabatlar hamda huquqiy tartibga solish mexanizmini; g'oyaviy elementlariga huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy mafkura va yuridik fanni; tashkiliy elementlariga esa huquqiy faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarni kiritadi.[2] Huquqiy oila esa shu kabi to'liq milliy huquqiy tizimlarni ulardagi ustuvor umumiy belgilar bo'yicha birlashtiradi. Demak, huquq tizimi — huquqning ichki tuzilishi, milliy huquqiy tizim — muayyan davlatning yaxlit huquqiy voqeligi, huquqiy oila esa o'xshash milliy huquqiy tizimlarning qiyosiy-huquqiy tasnifidir.

Huquqiy oila tushunchasining mohiyatini anglashda uning tasniflash mezonlari muhim o'rin tutadi. Birinchi mezon huquqiy tizimlarning tarixiy kelib chiqishi va rivojlanish yo'lidir. Huquqning shakllanishi muayyan xalqning davlatchilik tarixi, ijtimoiy tuzumi, dini, urf-odatlar, iqtisodiy munosabatlari va huquqiy tafakkuri bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Ikkinchi mezon huquqning asosiy manbasidir. Ayrim huquqiy oilalarda normativ-huquqiy hujjat va kodifikatsiya yetakchi o'rin tutsa, boshqalarida sud pretsedenti, diniy manba yoki huquqiy odat asosiy tartibga soluvchi vosita hisoblanadi. Uchinchi mezon huquq tizimining ichki tuzilishi va huquq tarmoqlarini shakllantirish usulidir. To'rtinchi mezon yuridik tushuncha, prinsip va konstruksiyalarning umumiyligidir. Beshinchi mezon huquq ijodkorligi va huquqni qo'llashning o'zaro nisbati, sudyaning huquqni rivojlantirishdagi roli va sud qarorlarining yuridik ahamiyatidir. Oltinchi mezon huquqiy mafkura, huquqiy ong va huquqiy madaniyat xususiyatlaridan iborat.

Huquqiy oilalarni faqat texnik-yuridik belgilar asosida tasniflash yetarli emas. Huquq muayyan madaniyat va sivilizatsiya muhitida shakllangani

sababli huquqiy madaniyat, tarixiy an'ana va ijtimoiy qadriyatlar ham tasnifda hisobga olinishi lozim. O'zbek olimlari huquqiy tipologiya avvalo huquq sohasining umumiy va muhim belgilariga asoslanishi kerakligini, biroq huquqiy tizimlar muayyan tarixiy, diniy, ma'naviy va siyosiy-huquqiy muhit doirasida vujudga kelishini ta'kidlaydilar. Jahonda qancha barqaror madaniy-tarixiy tiplar mavjud bo'lsa, shunga muvofiq turli huquqiy oilalar va huquqiy madaniyat turlarini ajratish mumkinligi qayd etiladi. Shu bilan birga, huquqiy oilalar bir-biridan mutlaq ajralgan tizimlar emas; ular o'zaro ta'sir qiladi, huquqiy institutlar va qadriyatlarni qabul qiladi, biroq har bir milliy huquqiy tizim o'zini shakllantirgan "ona madaniyat" bilan bog'liqligini saqlab qoladi.[3] Bu yondashuv huquqiy oilani faqat huquq manbalariga asoslangan mexanik tasnif emas, balki huquqiy madaniyat va tarixiy taraqqiyotning ifodasi sifatida baholashni talab qiladi.

Zamonaviy qiyosiy huquqshunoslikda roman-german, anglo-sakson yoki umumiy huquq, diniy-an'naviy, odat huquqi, sotsialistik va aralash huquqiy oilalar ko'p uchraydi. Biroq huquqiy oilalar soni va ularni tasniflash mezonlari xususida yagona yondashuv mavjud emas. Ayrim olimlar Skandinaviya, Lotin Amerikasi, Uzoq Sharq va Afrika huquqiy tizimlarini mustaqil oila sifatida ajratsalar, boshqalar ularni yirik huquqiy oilalarning alohida guruhlari yoki aralash huquqiy tizimlar sifatida talqin qiladilar. Shu bois huquqiy oila tasnifi o'zgarmas va qat'iy chegaralangan shakl emas. U muayyan davrda milliy huquqiy tizimlar o'rtasidagi ustuvor o'xshashliklarni ifodalaydigan ilmiy modeldir.

Roman-german yoki kontinental huquqiy oilasi Yevropa qit'asida Rim huquqi, kanonik huquq, mahalliy huquqiy odatlar va universitet yuridik ta'limi ta'sirida shakllangan. Keyinchalik Fransiya va Germaniyadagi kodifikatsiya jarayonlari mazkur huquqiy oilaning zamonaviy xususiyatlarini belgilagan. O'zbek huquqiy adabiyotlarida qit'a huquq tizimi dastlab Rim huquqining asosiy tushunchalari, tuzilishi va umumiy ruhini meros qilib olgan

Yevropa davlatlarini birlashtirgani, german huquqiy omilining ta'siri natijasida esa "roman-german huquqiy oilasi" atamasi shakllangani qayd etiladi.[4] Roman-german huquqiy oilasining asosiy xususiyati normativ-huquqiy hujjatlarning ustuvorligi, huquq normalarining umumiy va mavhum shaklda ifodalanishi, Konstitutsiya va qonunlarning yuridik iyerarxiyada yuqori o'rin tutishi, qonunchilikning kodekslar asosida tizimlashtirilishi, huquqning ommaviy va xususiy huquqqa hamda moddiy va protsessual huquqqa ajratilishidir.

Sh.A. Saydullayev roman-german huquqiy oilasining xususiyatlaridan biri huquqning ommaviy va xususiy huquqqa bo'linishi ekanligini ta'kidlaydi. Xususiy huquq alohida shaxslarning manfaatlarini ta'minlashga, ommaviy huquq esa davlat va jamiyatning umumiy manfaatlarini muhofaza qilishga yo'naltiriladi. Mazkur farq qadimgi Rim huquqidagi *jus privatum* va *jus publicum* tasnifiga borib taqaladi.[5] Roman-german huquqida qonun chiqaruvchi huquq normalarini yaratishning asosiy subyekti, sud esa umumiy qoida bo'yicha ushbu normalarni muayyan ishlarga qo'llovchi organ hisoblanadi. Sud amaliyoti huquqni talqin qilish va uni bir xil qo'llashda muhim ahamiyat kasb etsa-da, anglo-sakson huquqidagi kabi sud pretsedenti qonun bilan teng asosiy manba sifatida qaralmaydi.

Anglo-sakson yoki umumiy huquq oilasi Angliya huquqi negizida shakllangan bo'lib, unda sud pretsedenti an'anaviy ravishda asosiy huquq manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizimda huquq umumiy va mavhum qoidalarangina emas, balki sud tomonidan muayyan nizolarni hal qilish jarayonida ishlab chiqilgan huquqiy pozitsiyalardan tarkib topadi. O'zbek olimlari anglo-sakson huquqiy oilasida huquqning pragmatik konsepsiyasi ustuvorligini, yuridik norma ko'p hollarda muayyan sud ishini hal qilish usuli sifatida namoyon bo'lishini va protsessual masalalarga katta ahamiyat berilishini ko'rsatadilar.[6] Bunda o'xshash ish bo'yicha avval qabul qilingan sud qarori keyingi ishni hal qilishda normativ asos vazifasini o'taydi. Roman-

german huquqida huquqni normativ shaklga solish asosan qonun chiqaruvchi orqali amalga oshirilsa, anglo-sakson huquqida huquqiy qoida sud amaliyoti orqali ham shakllanadi.

Diniy-an'anaviy huquqiy oilalarda huquqning mazmuni dunyoviy davlat irodasidangina emas, balki diniy ta'limotlar, muqaddas manbalar, huquqiy odatlar va an'analardan kelib chiqadi. Islom huquqida Qur'on, sunnat, ijmo' va qiyos kabi manbalar muhim ahamiyat kasb etsa, odat huquqiga asoslangan tizimlarda uzoq vaqt davomida takrorlangan va jamoa tomonidan majburiy qoida sifatida tan olingan urf-odatlar munosabatlarni tartibga soladi. Diniy-an'anaviy huquqda huquq, axloq va diniy majburiyatlar o'rtasidagi chegara kontinental huquqqa nisbatan kamroq ajratilgan bo'ladi. Ayni paytda zamonaviy davlatlarning aksariyatida diniy va odat normalari Konstitutsiya, qonunlar hamda davlat sudlari bilan birgalikda amal qilishi sababli sof diniy yoki sof odat huquqi tizimlaridan ko'ra aralash huquqiy tizimlar ko'proq uchramoqda.

Aralash huquqiy tizimlar bir necha huquqiy oilaning asosiy xususiyatlarini o'zida birlashtiradi. Bunda bir sohada normativ-huquqiy hujjatlar ustuvor bo'lishi, boshqa sohada sud pretsedenti yoki diniy normalar katta ahamiyat kasb etishi mumkin. Huquqiy globallashtirish, xalqaro huquq ta'siri, mintaqaviy integratsiya va xorijiy huquq institutlarini qabul qilish natijasida huquqiy oilalar o'rtasidagi an'anaviy chegaralar nisbiylashib bormoqda. Kontinental huquq mamlakatlarida sud amaliyotining ahamiyati ortmoqda, umumiy huquq mamlakatlarida esa parlament qonunlari va kodekslashtirish kengaymoqda. Shu sababli zamonaviy sharoitda muayyan mamlakatni huquqiy oilaga kiritish uning barcha huquqiy institutlari faqat shu oilaga tegishli ekanligini emas, balki unda muayyan huquqiy modelning belgilari ustuvorligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasining milliy huquqiy tizimi o'zining asosiy rasmiy-yuridik belgilariga ko'ra roman-german huquqiy oilasiga yaqin turadi.

Bu xulosa huquqning asosiy manbasi sifatida normativ-huquqiy hujjatlarning tan olinishi, Konstitutsiya va qonunlarning yuridik ustuvorligi, normativ hujjatlarning iyerarxik tizimi, kodekslashtirilgan qonunchilikning keng qo'llanilishi, huquqning tarmoqlarga ajratilishi hamda sudning asosan huquqni qo'llash vazifasini bajarishi bilan asoslanadi. Bu — normativ va doktrinal belgilarga asoslangan ilmiy xulosadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga ko'ra, mamlakatda Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi, Konstitutsiya butun hududda oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. Davlat organlari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolar Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq ish yuritadilar.[7] Mazkur qoida huquq manbalarining iyerarxik tuzilishini va yozma Konstitutsiyaning markaziy o'rnini belgilaydi, bu esa kontinental huquqiy oilaning asosiy xususiyatlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni normativ-huquqiy hujjatni qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquq normalarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat sifatida ta'riflaydi. Qonunda normativ-huquqiy hujjatlarning turlari, o'zaro yuridik nisbati, ularni tayyorlash, huquqiy ekspertizadan o'tkazish, qabul qilish, rasmiy e'lon qilish va amalga kiritish qoidalari belgilangan.[8] Bu holat O'zbekiston huquq tizimida huquqiy tartibga solishning asosiy shakli normativ-huquqiy hujjat ekanligini ko'rsatadi.

Mamlakat qonunchiligida Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar, kodekslar, qonunlar, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, vazirlik va idoralarning buyruq va qarorlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari muayyan

yuridik iyerarxiya asosida amal qiladi. Quyi yuridik kuchga ega hujjat yuqori yuridik kuchga ega normativ-huquqiy hujjatga zid bo'lishi mumkin emas. Normativ hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish va idoraviy hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish institutlari ham huquqning yozma, markazlashgan va iyerarxik xususiyatini kuchaytiradi. 2025-yilda qabul qilingan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash, qabul qilish, huquqiy ekspertiza va davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalari ham ushbu tartibni davom ettiradi.

O'zbekiston huquqiy tizimining roman-german oilasiga yaqinligini qonunchilikning kodekslashtirilganligi ham ko'rsatadi. Fuqarolik, jinoyat, mehnat, oila, soliq, bojxona, ma'muriy javobgarlik, jinoyat-protsessual, fuqarolik protsessual, iqtisodiy protsessual va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohalarida kodekslar qabul qilingan. Kodeks muayyan huquq sohasiga oid normalarni tizimli va kompleks tarzda birlashtiradi. Bunday kodifikatsiya huquq normalarining aniqligi, barqarorligi va o'zaro muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, kontinental huquqiy an'ananing yetakchi belgilaridan hisoblanadi.

Biroq O'zbekiston huquqiy tizimini roman-german huquqining oddiy ko'chirmasi sifatida baholash mumkin emas. U mustaqil davlatchilik, milliy huquqiy madaniyat, tarixiy urf-odatlar, musulmon huquqi va sovet davri huquqiy tajribasi ta'sirida shakllangan milliy huquqiy tizimdir. O'zbek xalqining tarixiy huquqiy madaniyatida odat huquqi, mahalla, oilaviy munosabatlar, yarashuv, o'zaro yordam va jamoaviy mas'uliyat institutlari muhim o'rin tutgan. Islom huquqi nikoh, oila, meros, mulkiy va axloqiy munosabatlarga uzoq vaqt ta'sir ko'rsatgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya imperiyasining kontinental huquqiy tartibi, keyinchalik sovet huquq tizimi joriy etilgan. Mustaqillikdan so'ng esa milliy davlatchilik va umume'tirof etilgan huquqiy qadriyatlar asosida yangi huquqiy tizim shakllantirildi. Shu sababli O'zbekiston huquq tizimida roman-german

huquqining rasmiy-yuridik shakllari milliy madaniy va tarixiy xususiyatlar bilan uyg'unlashgan.

Huquqiy oila tushunchasining amaliy ahamiyati ham katta. Birinchidan, u xorijiy davlatlar qonunchiligini qiyosiy o'rganish va munosib huquqiy yechimlarni tanlash imkonini beradi. Ikkinchidan, xorijiy huquq institutini milliy qonunchilikka joriy etishda uning qaysi huquqiy muhitda shakllanganini hisobga olishga yordam beradi. Uchinchidan, xalqaro shartnomalarni amalga oshirish va turli davlatlar huquqiy institutlarini uyg'unlashtirishda huquqiy tafovutlarni aniqlash imkonini yaratadi. To'rtinchidan, sudyalari, advokatlar, prokurorlar va boshqa huquqni qo'llovchi subyektlarning xorijiy huquq manbalarini to'g'ri anglashiga xizmat qiladi. Masalan, umumiy huquqdagi "pretsedent" institutini kontinental huquqdagi sud tushuntirishlari bilan to'liq tenglashtirish yoki anglo-sakson shartnoma huquqidagi institutni uning huquqiy muhitini hisobga olmasdan milliy qonunchilikka mexanik ravishda ko'chirish noto'g'ri natijalarga olib kelishi mumkin.

Huquqiy oila muayyan davlat huquqiy taraqqiyotini qat'iy chegaralab qo'yadigan qolip emas. Milliy huquqiy tizim o'z ehtiyojlari va tarixiy sharoitlaridan kelib chiqib, boshqa huquqiy oilalarning samarali institutlarini qabul qilishi mumkin. Biroq huquqiy institutni o'zlashtirishda uning milliy Konstitutsiya, huquq prinsiplari, huquqiy madaniyat, mavjud huquq tarmoqlari va huquqni qo'llash amaliyoti bilan muvofiqligi ta'minlanishi zarur. Aks holda huquqiy transplantatsiya mazmunan ishlamaydigan, bir-biriga zid normalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, huquqiy islohotlarda xorijiy tajribadan foydalanish tanqidiy, qiyosiy va milliy huquqiy manfaatlarga asoslangan bo'lishi lozim.

So'zimiz yakunida aytish mumkinki, huquqiy oila — tarixiy shakllanish manbalari, huquqiy mafkurasi, huquqning asosiy shakllari, ichki tuzilishi, yuridik texnikasi, huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash mexanizmlari

jihatidan o'xshash bo'lgan milliy huquqiy tizimlarni birlashtiruvchi ilmiy-tipologik kategoriyadir. U huquq tizimi yoki muayyan davlat qonunchiligining o'zi emas, balki bir qator milliy huquqiy tizimlardagi umumiy va barqaror xususiyatlarni ifodalaydi. Huquqiy oilaning mohiyatini faqat huquq manbasi bilan cheklash to'g'ri emas; uning mazmuniga huquqiy tarix, huquqiy madaniyat, yuridik tafakkur, sud va qonun chiqaruvchining o'rni, huquqni tizimlashtirish uslubi ham kiradi. Roman-german huquqiy oilasida normativ-huquqiy hujjat, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi, kodifikatsiya va huquqning tarmoqlarga bo'linishi yetakchi o'rin tutsa, anglo-sakson huquqida sud pretsedenti va sud orqali huquqni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Diniy-an'anaviy tizimlarda diniy va odat normalari, aralash tizimlarda esa bir nechta huquqiy an'ananing uyg'unligi kuzatiladi. O'zbekiston Respublikasining milliy huquqiy tizimi normativ-huquqiy hujjatlarning ustuvorligi, Konstitutsiya va qonunlarning iyerarxik mavqei, kodekslashtirish hamda huquqning ommaviy va xususiy tarmoqlarga ajratilishi jihatidan roman-german huquqiy oilasiga yaqindir. Shu bilan birga, u milliy davlatchilik, odat huquqi, musulmon huquqiy madaniyati va tarixiy taraqqiyot tajribasini o'zida aks ettiruvchi mustaqil milliy huquqiy tizim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. — Toshkent: TDYU, 2018. 147-148-betlar.
2. O'sha manba. — 147-148-betlar.
3. Odilqoriyev X.T., Yakubov Sh.U. O'zbekiston huquqiy madaniyati nazariyasi va tarixi: o'quv qo'llanma. — Toshkent, 2012. — 73-76-betlar.
4. Yangi davr huquqi: o'quv-ilmiy material. — Toshkent, 2024. 9-10-betlar.
5. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. — Toshkent: TDYU, 2018. 151-152-betlar.
6. Yangi davr huquqi. — Toshkent, 2024. 9-10-betlar.

7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. Toshkent.: 2023-yil.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi 682-son “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5378966>